

## MULTIMEDIYANING JAMIYATDAGI O'RNI VA RO'LI

**Turgunova E.E**

*ADCHTI o'qituvchi*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda multimedya, uning turlari, uni qo'llashda texnik vositalarning o'rni va ro'li va undan foydalanish haqida fikr va muloxazalar yuritilgan.

**Абстракт.** В данном тезисе обсуждаются мультимедия, её виды, место и роль технических средств в её применении и её соображения по поводу её использования.

**Abstract.** In this thesis multimedia, its types, the place and role of technical tools in its application, and considerations about its use are discussed.

**Kalit so'zlar:** multimedya, internet, texnologiya, analogiya, gipermediya, taqdimot.

Jamiyat taraqqiyoti rivojlangani sari hamma sohada sezilarli o'zgarishlar yuz berayotgani quvonarli hol albatta. Ayniqsa, internet tarmog'i ayni damda yuqori o'rinni egallagani hech kimga sir emas. Internetdan foydalanish barcha sohalarda o'z ifodasini topayotgani nafaqat jamiyatning, balki kishi ongingin ham rivojlanishida o'z ifodasini topmoqda. Shunigdek, ta'lim sohasidagi o'zgarishlar, ya'ni kompyuter, telefon vositalaridan foydalanish bugunning kundalik faoliyatiga aylangan. Ushbu vositalardan foydalanish kishilar ongida ma'lum ma'noda ijodkorlikning o'sishiga sabab bo'ldi. Ijodkorlik borasida yoshlarga teng keladigani topilmasa kerak, chunki ulardagi yangilikka bo'lgan ishtiyoyq juda kuchlidir. Hozirgi davrda omma orasida keng tarqalgan turli marosim va tadbirlarni suratga olish va video tasmalarga joylashda kameralardan foydalanishda ham ular bir oz

yangiliklarni hayotga tatbiq qilishga ulgurgani bejiz emas. Nafaqat tadbir yoki marosimlar, balki jamiyatning har bir sohasida bu jarayon o'z o'rnnini topdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ular foydalanayotgan telefonlari orqali turli prezentatsiyalar, video-roliklar, video-montaj ishlarini amalga oshirib, ijtimoiy tarmoqlarga joylashda juda faol qatnashmoqda. Bu holat katta yoshdagilar orasida ham uchrab turadi. Ko'rinish turibdiki, jadal suratlarda rivojlanib borayotgan ushbu davrda internet tarmog'i, undan unumli foydalanish kishilarga katta yordam bermoqda. Shu o'rinda ularning yangiliklarga befarq emasligini inobatga olish joizdir. Ular jamiyatda yuz berayotgan voqe va hodisalarga befarq emasligi, ularni o'rganib hayotga tatbiq qilish orqali o'zlaridagi ijdkorlik faoliyatini kashf qilishida internet tarmogining o'rni katta ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o'rinda multimedya ham muhim sohalardan biriga aylanganini tan olish maqsadga muvofiqdir, chunki jamiyatimizda bu sohaga murojaat qilmaydigan jabhani topolmaysiz. Multimedya kompyuter ma'lumotlarini ommaga yetkazish bilan bir qatorda foydalanuvchiga ma'lumot turlarini audio, video, animatsiya va boshqa noana'anaviy usullarda qiziqarli tarzda yetkazish imkonini beradi. Multimedia madaniyat, san'at sohasida, ilmda, biznes va boshqa sohalarda qo'llanilayotgani kabi ta'lim jarayonida ham keng qo'llanilmoqda.

Multimedia so'ziga e'tibor beradigan bo'lsak, uning ko'plab afzallik va qulayliklariga guvox bo'lamic. U kishilarga bir vaqtning o'zida ham ovoz, ham animatsiya, video, kompyuter grafikasi kabi ma'lumotlarni berish imkoniga ega. Shu bilan bir qatorda ubir vaqtning o'zida berilayotgan ma'lumotda matn, ovozli xabar, interfaol vositalarni o'zida jamlaydi va bu turli apparat va dastur vositalaridan foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, multimedia yana ma'lumot tashuvchi, kerak bo'lganda saqlovchi, yetarli darajada ta'minlovchi vositadir. Multimedia qo'pol yoki mayin bo'lishiga qarab klassifikatsiya qilinadi, ya'ni tahlil qilinadigan (analogik) va tahlil qilinmaydigan (gipermediya).

Analogik multimedialiada asosiy manba kino bolib, uni ko'rayotgan kishi jarayonda ishtirok eta olmaydi, faqat tomoshabin bo'ladi, uning kino haqidagi xulosasi kinoga ta'sir qilmaydi, u faqat kinoni ko'rishi mumkin xolos, uning kino

haqidagi fikri muhim emas, chunki u avval suratga olingan va ommaga taqdim qilib bo'lingan. U fikrini atrofidagilar bilan o'rtoqlashishi mumkin.

Gipermediada esa interfaollik bo'lib, kishi bu jarayonda beixtiyor qatnashish imkoniga ega va fikr bildira oladi. Bunga kompyuter o'yinlarini misol bo'la oladi. Ko'rinish turibdiki, bu jarayonda texnik vositalardan foydalaniladi va ma'lumot turli usullarda saqlanadi. Ular jumlasiga kinoplyo'nka, disk, qattiq disk va boshqalar. Shu o'rinda yana kino san'atiga murojaat qiladigan bo'lsak, u plyonkada saqlanadi, unda ro'l o'ynagan kishi tasvirni ko'rib o'zining fikr va mulohazalarini bildirishi mumkin, lekin unga o'zgartirish kiritma olmaydi, chunki u avval taqdim qilinib bo'lgan ma'lumot hisoblanadi. Shuningdek, multimediyadan foydalanuvchilar ma'lumotdan umumiyligi va shaxsiy, kasbiy va shunchaki qiziquvchilarga bo'linadi va ularning maqsadiga ko'ra ma'lumot tanlashiga qarab turlarga bo'linadi. Ular masofadan turib, ish joyida o'zining ijodini kerakli joyda bemalol taqdim qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu shuni ko'rsatadiki, multimediya ma'lumot taqdim qilishda kishilarga qulayliklar yaratadi.

Shu o'rinda internet tarmog'ining ham o'rni beqiyosligini inobatga olish joizdir. Ayniqsa masofadan turib ma'lumot olish va berish bugunning dolzarb mavzusiga aylangan. Bu tayyorlangan ma'lumotni onlayn tarzda berish, masofadan turib vebinar, konferensiyalar o'tkazish imkonini beradi.

Shuningdek, multimedya internet orqali topilgan, unga qo'shimcha va o'zgarishlar kiritlib ishlov berilgan ijodiy ma'lumotlardan iborat manba bo'lib, uning qulayligi foydalanuvchiga turli vositalardan foydalanish va ozgartirishlar kiritish imkonini beradi. Multimedya texnologiyasini katta masshtabli ekranlarda berishdan maqsad o'rganish hisoblanib, undagi taqdimot turli jarayonlarda o'tkaziladi. Ayniqsa ta'lim sohasida undan foydalanish ta'lim beruvchiga ham, ta'lim oluvchiga ham o'zlashtirilgan ko'nikma va malakalarni faollashtirishda yaxshi samara beradi. O'rganuvchilar o'zlashtirgan bilimlarini taqdim qilishda slayddan foydalanishi uning ijod qilishiga keng imkoniyat beradi. Ayniqsa, dars jarayonida mavzuga moslab kompyuter orqali turli animatsiya va slaydlardan foydalanib tayyorlangan dars taqdimotlari o'rganilayotgan fan, sohada

o'rganuvchilarda katta qiziqish uyg'otadi va o'zining samarasini berish bilan bir qatorda ularda ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.Bunday yondashuv dars jarayonida ma'lum ma'noda vaqtni tejash va o'rganuvchining bilim darajasini baholashga imkon beradi.

Bugunga kelib bu soha yetarli darajada hayotiy zaruratga aylangani bois, ta'lim va meditsina sohasida bir qancha quvonarli natijalarga erishish imkoniyati yaratilmoqda. Professor, o'qituvchilar ta'lim sohasiga oid turli manbalardan foydalangan holda intellektual bilimlar xaritasini, onlayn test texnologiyalarini ishlab chiqayotgan bo'lsa, meditsinada vrachlar virtual operatsiyalarga tayyogarlik ko'rish, onlayn operatsiyalarni kuzatish orqali malaka oshrishi va uni hayotga tatbiq qilish imkoniyatiga ega.Shuningdek, multimedia boshqa sohalarni ham qamrab olgani kishilar hayotida o'z aksini topgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bu jarayon hamma sohalarda jadal suratlarda rivojlanib, undan foydalanish kun sayin ortib borayotgani multimediyaning hayotda o'z ifodasini topganidan dalolat beradi.Bu soha kelajakda bundan ham rivojlanishiga hech qanday shak-shubxa bo'lishi mumkin emas.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1.Kapterev A.I. Multimediya kak sotsiokulturaliy fenomen. — M.: Profizdat, 2002.- 224 s
- 2.Shlikova O.V. Kultura multimedia. Uch. Posobiye dlya studentov. — M.: FAIR-PRESS, 2004.
- 3.Denikin AA. Multimediya i iskusstvo: ot mifov k realiyam// Xudojestvennaya kultura — 2013. — № 1 (6)
- 4.Internet saytlari: <https://web.archive.org/web/20140728130814/>,  
[https://sias.ru/magazine/vipusk 6 -2013](https://sias.ru/magazine/vipusk_6_-2013)